| <b>Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li</b>                                                                                                                                          |     |
| Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar .....                                                                                       | 232 |
| <b>Ochilova Sarvinoz Salim qizi</b>                                                                                                                                                  |     |
| Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari ..... | 236 |
| <b>Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi</b>                                                                                                                                            |     |
| Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari.....                                                                                        | 239 |
| <b>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</b>                                                                                                                                                |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi.....                                                 | 242 |
| <b>Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon</b>                                                                                                                                     |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli .....                                                                          | 245 |
| <b>Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi</b>                                                                                                                                               |     |
| Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni .....                                                                                                                       | 248 |
| <b>Umirova Gulzona Jamoliddin qizi</b>                                                                                                                                               |     |
| Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari .....                                                                                                    | 251 |
| <b>Ungalov Akmal Navruzovich</b>                                                                                                                                                     |     |
| Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi .....                                                                                   | 254 |
| <b>Xabirova Zulfiya Anvarbekovna</b>                                                                                                                                                 |     |
| Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati .....                                                                               | 257 |
| <b>Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li</b>                                                                                                                                        |     |
| Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati.....                                                                                                                       | 260 |
| <b>Yuldasheva Mastura Islamovna</b>                                                                                                                                                  |     |
| Пословицы и поговорки как отражение картины мира .....                                                                                                                               | 263 |
| <b>Алламбергенова Шахноза Садатдиновна</b>                                                                                                                                           |     |
| Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni .....                                                     | 268 |
| <b>Abdumannopov Muhammadsahib Muhammadyusuf o'g'li</b>                                                                                                                               |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar.....                                                        | 272 |
| <b>Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna</b>                                                                                                                                            |     |



|                                                                                                                                                  |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....                            | 277 |
| Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi                                                                                                                |     |
| Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari .....                | 280 |
| O'rinova Nilufar Muhammadovna                                                                                                                    |     |
| Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi..... | 286 |
| Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li                                                                                                               |     |
| Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida .....                                                       | 290 |
| Tugalova Madina Erkin qizi                                                                                                                       |     |
| Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....                                                                                           | 293 |
| Umarova Muyassarxon A'zamjonovna                                                                                                                 |     |
| Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari .....                                                               | 297 |
| Xanova Dilrabo                                                                                                                                   |     |
| Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies .....                                         | 303 |
| Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna                                                                                                                    |     |
| Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli .....                                    | 306 |
| Ametova Guljamila Elbrusovna                                                                                                                     |     |
| Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish .....                                    | 310 |
| Baydjanov Bekzod Xaitboyevich                                                                                                                    |     |
| Aksiologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati.....                                  | 314 |
| Choriyeva Feruza Amrullayevna                                                                                                                    |     |
| Ibrayim Yusupovning "Saksoyul" she'rini o'qitish metodikasi .....                                                                                | 317 |
| Darmenov Allayar Abdilxaq uli                                                                                                                    |     |
| Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....                                     | 320 |
| Ergasheva Anbar Shaymardan qizi                                                                                                                  |     |
| Oiladagi zo'ravonlik: sabablari, oqibatlar va psixologik yondashuvlar .....                                                                      | 324 |
| Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi                                                                                                                   |     |
| Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari.....                                                                              | 329 |
| Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi                                                                                                             |     |
| Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish .....                                                      | 334 |
| Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li                                                                                                                |     |
| Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ...                                            | 339 |
| Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi                                                                                     |     |
| Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini .....                                            | 346 |
| Saotmuratova Zebo Yuldash qizi                                                                                                                   |     |
| OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari.....                                          | 350 |
| Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi                                                                                                               |     |



# IBRAYIM YUSUPOVNING “SAKSOVUL” SHE’RINI O’QITISH METODIKASI

Darmenov Allayar Abdilxaq uli  
Ajiniyoz nomidagi NDPI tayanch doktranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibrayim Yusupovning maktab darsliklarida berilgan she'riy asarlarini o'qitish usullari yoritiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 7-sinflar uchun nashr etilgan "Adabiyot" darsligida shoirning bir nechta she'rlari berilgan. Ularni shunchaki yodlatish emas, balki undagi so'zlarning mohiyatini anglash ham muhimdir. Ibrayim Yusupovning hayoti va ijodi qoraqalpoq sinflari uchun chiqariladigan 1-sinf dan 11-sinf gacha bo'lgan o'qish, adabiy o'qish va adabiyot darsliklarining aksarida o'rgatiladi. 7-sinf da berilgan she'rlar, xususan, "Saksovul" she'ri qoraqalpoq xalqining tarixiy o'tmishi va yashash tarzi haqida hikoya qiladi. O'qituvchi mazkur she'rni turli xil metod va texnologiyalar yordamida o'rgatish orqali o'quvchilarda o'z tarixiga bo'lgan muhabbatni uyg'otadi, ona Vataniga, ona tuprog'iga bo'lgan iftixorni kuchaytiradi. Maqolada ko'rsatilgan metod va texnologiyalar dars jarayonida o'qituvchiga metodik yordam sifatida xizmat qilishi mumkin. Bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davrda maktablarda adabiyot, ayniqsa, she'riy asarlarni o'qitish pedagog uchun katta mas'uliyat hisoblanadi. Maqolada she'rni o'qitishda leksiya, suhbat, klaster, savol-javob, fanlararo integratsiya kabi ta'limiy metodlardan foydalanish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Ibrayim Yusupov, she'riyat, darslik, o'qitish metodlari, adabiyot darsi, 7-sinf, Qoraqalpog'iston, "Saksovul" she'ri, metodik yordam, integratsiyalashgan ta'lim.

**Abstract:** This article discusses the methods of teaching the poetic works of the Hero of Uzbekistan, People's Poet of Uzbekistan and Karakalpakstan, Ibrayim Yusupov, presented in school textbooks. In the "Literature" textbook for 7th grade students of the Republic of Karakalpakstan, several of the poet's poems are given. It is necessary not only to memorize them, but also to understand the essence of the words. The life and work of Ibrayim Yusupov are studied in most of the reading, literary reading, and literature textbooks for Karakalpak classes from grades 1 to 11. The poems presented in the 7th grade, especially the poem "Saksovul," speak about the historical past and lifestyle of the Karakalpak people. By teaching this poem through various methods and technologies, the teacher fosters a love for history in students, increasing their pride in their Motherland and native land. The various methods and technologies presented in the article can provide methodological support to teachers during lessons. In today's rapidly developing era, teaching literature, especially poetry, in schools is a great responsibility for educators. The article outlines ways to use various educational methods in poetry teaching, such as lectures, discussions, clusters, question-and-answer, and interdisciplinary integration.

**Key words:** Ibrayim Yusupov, poetry, textbook, teaching methods, literature lesson, 7th grade, Karakalpakstan, "Saksovul" poem, methodological support, integrated education.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются методы преподавания поэтических произведений Героя Узбекистана, народного поэта Узбекистана и Каракалпакстана Ибраима Юсупова, представленных в школьных учебниках. В учебнике "Литература", изданном для учащихся 7-х классов Республики Каракалпакстан, представлены несколько стихотворений поэта. Необходимо не просто заставлять их запоминать, но и понимать суть слов. Жизнь и творчество Ибраима Юсупова преподаются в большинстве учебников по чтению, литературному чтению и литературе для каракалпакских классов с 1-го по 11-й класс. Стихотворения, представленные в 7 классе, особенно стихотворение "Саксаул", рассказывают об историческом прошлом и образе жизни каракалпакского народа. Преподавая это стихотворение с использованием различных методов и технологий, учитель пробуждает у учащихся любовь к своей истории, усиливает чувство радости за Родину и родную землю. Представленные в статье методы и технологии могут оказать методическую помощь учителю в ходе урока. В сегодняшнюю стремительно развивающуюся эпоху преподавание литературы, произведений, особенно поэзии, в школах – это большая ответственность для педагогов. В статье показаны способы использования ряда образовательных методов, таких как лекция, беседа, кластер, вопрос-ответ и метод междисциплинарной интеграции.

**Ключевые слова:** Ибраим Юсупов, поэзия, учебник, методы преподавания, урок литературы, 7-й класс, Каракалпакстан, стихотворение "Саксаул", методическая помощь, интегрированное обучение.



## KIRISH

Xalq shoiri I. Yusupov she'riyati o'zining xalq tiliga yaqinligi, har qanday o'quvchiga tushunarli bo'lishi bilan ajralib turadi. Uning ijodi mamlakatimizda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini qamrab olgan. Umumta'lim maktablarining 7-sinflari uchun chiqarilgan Adabiyot darsligida <sup>[1]</sup> I. Yusupovning "Mening uyim", "Orolga", "Qora tol", "Ona", "Saksovul" she'rlari keltirilgan. Shoir "Saksovul" she'rida qoraqalpoq xalqining tarixiy o'tmishini va bugungi yashash tarzini birgina saksovul o'simligi misolida mohirona bayon etadi. She'r jami 6 banddan iborat. Uning asosiy mazmunini o'quvchilarga ochib berishda suhbat, savol-javob, fanlararo integratsiya, klaster kabi metod va texnologiyalardan foydalanish mumkin.

Eng avvalo, badiiy asar (she'r) to'liq o'qituvchi tomonidan o'qib berilishi kerak. So'ng, dastlabki tushunchalar asosida o'quvchilardan fikr tinglanadi. "Maktabda adabiyotni o'qitish jarayonidagi eng asosiy pedagogik faoliyat – badiiy asarni tahlil qilish. Badiiy asarni tushunadigan, ta'sirlanadigan, uni to'g'ri tahlil qila oladigan o'quvchini tayyorlay olgan o'qituvchigina maqsadiga erishgan bo'ladi. Chunki dasturda o'rganish ko'zda tutilgan adabiy materiallarni shunchaki o'qib ketaverish bilan adabiyot darsi yuzaga kelmaydi." <sup>[2:222]</sup> Shu sababli, bu she'rda shoir tomonidan aytilmoqchi bo'lgan fikrni o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilib o'tish maqsadga muvofiqdir.

She'r avvalida saksovul o'simligini tanishtirishdan boshlanadi:

*Únsiz qolların kókke sozıp ásten,  
Kim bular el shetinde erberhesken?  
Heshkim emes, bul mázi seksewiller,  
Shet-shebirsiz dalanı qaplap ósken.* <sup>[1:19]</sup>

Shoirning she'r boshida qo'ygan savolini o'qituvchi o'quvchilarga yana qayta yo'naltirishi mumkin. Ya'ni: "Únsiz qollarini kókka cho'zib sekin, kim bular el chetida tipirchilab turgan?" deb so'ralganda, o'quvchilar she'rning keyingi ikki qatorini aytib javob berishlari mumkin. Bu bir tomondan she'rning o'quvchilar tomonidan tez yod olinishi uchun ham qulay imkoniyatdir.

*Boyında qızgını bar tas kómirdey,  
Shań basıp, quwań tartqan jas kórinbey,  
Óz dalasın jawlardan qorǵap turǵan,  
Áyyemgi massagettiń láshkerindey.*

Shu o'rinda fanlararo integratsiya usulidan foydalanib, o'quvchilarga geografiya darsidagi tog'-tosh jinslari mavzusidan toshko'mir haqida, tarix darsidan esa qadimgi turkiy qavmlar mavzusi doirasida massagetlar, To'maris va uning jasoratlari haqida ma'lumot berib o'tish o'rinli bo'ladi. Shu orqali o'quvchi ko'z oldida saksovul manzarasi jonlana boshlaydi.

*Ayqasar otlı áptap, jábir menen,  
Jıǵılsa isi bolmas qábir menen.  
Jawmay ótken bultlarǵa óshegisip,  
Túyedey tóze biler sabır menen.*

Bu bandda ham azaldan cho'l o'simligi hisoblangan saksovulning jazirama issiq bilan olishib, yiqilgan holatda ham "ko'minglar", deb hech kimni ovora qilmasligi, sahro kemasi nomini olgan tuya bilan yonma-yon tasvirlanishi savol-javob orqali tahlil qilinadi. Masalan, "Tuya haqida kim nima biladi?" deb so'rash mumkin. Bunda bir necha javoblar olinadi:

- Tuyalar 10–12 kungacha suvsizlikka chidaydi;
- Tuyalar – sahro kemasi;
- Ularni ilgari savdo-sotiqda ishlatishgan, ustiga yuklar ortilgan;
- Ular, hozirgi til bilan aytganda, oldingi davrning eng yaxshi transport vositasi bo'lgan...

Shunday qisqa savol-javobdan so'ng tuyalarning cho'l farzandi ekanligi isbotlanib, saksovulning ham sahroga bog'langan o'simlik ekanligi teng ko'rsatiladi:

*Boranlar kelib onı julqılag'an,  
Qorqpas ol, biroq heshbir g'ulǵuladan.  
Artezian izlagan barlovchiday,  
Uzun tomiri sho'l to'sin burg'ilagan.*

Sinfda texnik imkoniyatdan kelib chiqqan holda proyektor yoki monitor orqali artezion suvlarining oqib turgani, uning chiqishi uchun yerni burg'ilab qaziyotgan gidrolog-razvedkachilarning foto yoki video lavhalarini berilsa, bu o'quvchi xotirasida uzoq saqlanib qoladi. Texnik imkoniyat bo'lmagan taqdirda ham o'qituvchi doskada plakatlar yordamida buni amalga oshirishi mumkin. Masalan, burg'i asbobi va uning bajaradigan vazifasini rasmda ko'rsatish mumkin.

*Qaqshab, qiyinchilikka to's qaraydi,  
Bilmaydi qulay dashtda seskanishni.  
Og'irligi go'yo fil suyagiday,  
Suyagi bilan cho'l farzandi – saksovul.*



Bu bandda ham filning qiyofasi o'quvchilar ko'z o'ngida gavdalandirilib, uning suyagining o'zi qancha og'irlikka ega bo'lishi va saksovlarning ham og'irligi shunday bo'lishi aytiladi. She'rning ta'sirchanligini o'quvchi chuqurroq anglashi uchun oxirgi qatorni o'qishda chuqur urg'u bilan o'qish tavsiya etiladi. Chunki bunda shoir "cho'l farzandi" metaforik so'z birikmasini nima maqsadda qo'llaganini, nima uchun uni bunchalik "sevaman" deb kuylaganini o'quvchiga yetkazish zarur. Sababi, "shoir tuyg'usiga ta'sir etuvchi narsani o'rganish, bilish, lirika bo'yicha bizning nazariy bilimimizni to'ldiribgina qolmay, she'rni yanada chuqurroq tushunishga imkoniyat yaratadi." [3:54]

*Tug'umi yer tanlamay o'sib ketar,  
Jasoratda ko'k qarag'ayga teng bo'lar.  
Yonsa-da tekin yonmay, insoniyatga –  
Tanidagi bor haroratini berar.*

She'rdagi bu satrlar haqiqiy qoraqalpoq xalqining qiyofasini ochib bergan. Sababi, qoraqalpoqlar qadim zamonlardan beri ko'p marta ko'chib kelib, saksovludek "urug'i yer tanlamay unib ketgan." Ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib qolgan mardlik, vatanparvarlik g'oyalari ham shoir she'rining keyingi satrlarida g'oyat go'zal ifodalanadi. Bir qarashda bu yerda oddiy o'simlikning yonib, cho'g'ga aylanishi nazarda tutilayotgandek. Lekin uni chuqurroq tahlil qilsak, vatan, tug'ilgan zamin uchun jon fido qilishga tayyor turgan mard inson obrazi gavdalanadi. She'r orqali har bir farzand o'z yurtini himoya qilishi, uning erkinligi va farovonligi uchun jonini garovga qo'yishga tayyor turishi kerak degan yuksak gumanistik g'oyalarni anglash mumkin. O'qituvchi ana shu fikrlarni o'quvchilarga hikoya usulida yetkazadi.

She'rni shunday tahlil qilgandan so'ng, fikrlarni umumlashtirish maqsadida klaster usulidan foydalanish mumkin.



1-rasm: Klaster usuli

Klaster metodining afzalligi – o'quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda dars davomida "Saksovl" qo'shig'i misolida saksovl o'simligi, uning biologik sifati, shu bilan birga, qoraqalpoq xalqining ham qadimgi o'tmishi, etnografiyasi haqida ma'lumotlarga ega bo'ldik. She'rdagi eng samarali deb topilgan fikrlarni shunday katakchalarga joylashtirib olamiz. So'ng ularni ovoz chiqarib o'qish orqali yana bir bor o'quvchilarning yodiga solamiz.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun chiqarilgan Adabiyot darsligida berilgan "Saksovl" she'rini o'qitishda bir necha metod va texnologiyalardan foydalanish mumkin. Ularning qaysi biridan foydalanish esa faqat pedagogning mahoratiga bog'liq.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R. Niyetova, I. Mambetov, G. Jaqsimova. Adabiyat. 7-klass sabaqligi. Toshkent – 2022.
2. Q. Yo'ldosh, M. Yo'ldosh. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. Toshkent, 2022.
3. Q. Orazymbetov. Ta'limiy shayxonalari to'plami. Eki tomlyk. II tom. Nekis: Bilibim.
4. B. Yo'ldoshev. Qoraqalpoq adabiyotining dolzarb masalalari. Nukus: Qoraqalpoq, 2019.
5. A. Allamuratov. She'rni tahlil qilish va ifodali o'qitish metodikasi. Toshkent: Fan, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.